

## Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi-inson qadri, halq manfaatini amalda ta'minlashdir



### **Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi-inson qadri, halq manfaatini amalda ta'minlashdir**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 iyun Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashib, nutq so'zlab unda islohotlarimiz bosh tamoyili "INSON-JAMIYaT-DAVLAT" degan yondoshuvni Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqr singdirib amaliy xayotimizda bosh qadriyatga aylantirish zarurligi, ya'ni insonning qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi birinchi o'rinda turishi kerakligini bildirib Konstitutsiyaviy ilohotlarning yunalishlari to'g'risida to'xtalib o'tdi.

Ayni kunda Respublikamizning barcha hududlarida Bosh Qomusimiz – Konstitutsiyamizga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha keng qamrovli targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadbirda siyosatchilar, tarixchilar, Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatlari, senatorlar ishtirok etib, fuqarolarga Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishining sabablari va omillari, mezonlari, mazmun-mohiyati, nimaga asoslanib o'zgartirishlar kiritilayotgani yuzasidan ma'lumotlar berishmoqda.

Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi inson qadri-qimmati va uning manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotgani o'tkazilayotgan tadbirda asoslanib yetkazilyapti va barcha tadbirlar fuqarolarimizning faol ishtirokida bo'lib o'tayotir.

Tuman ichki ishlar bo'limi, moliya bo'limi va Xalq deputatlari So'x tumani Kengashi kotibiyatida bo'lib o'tgan ochiq muloqtlarda Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati Ahmadjon G'aniyev ishtirok etib, barcha ichki ishlar shaxsiy tarkibi, iqtisodchilar va xalq vakillariga mazkur masala yuzasidan axborot berdi.

Ishtirokchilarga Prezidentimiz tomonidan mazkur yo'nalishda belgilab bergen to'rtta asosiy yo'nalish haqida ma'lumotlar berilib, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining ishlab chiqilishi va umumxalq muhokamasiga qo'yilishi yuzasidan ham gapirildi.

Mazkur dolzarb masala yuzasidan tumanimizaning barcha mahalla fuqarolar yig'inlarida ham targ'ibot ishlari olib boriladi.